

Eksperimental psixologiya fanidan yakuniy nazorat savollari

1. “Biografik usul” atamasi nimani anglatadi?
2. Biografik metodni qaysi olimlar ishlab chiqqan?
3. “Shaxs shakllanishining xronologik jadvali” qanday bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?
4. Psixologiyada biografik metodning qanday modifikasiyalari qo‘llaniladi?
5. Shaxs yo‘nalganligi tushunchasiga ta’rif bering.
6. Yo‘nalganlik tushunchasida ehtiyoj va motivlar qanday o‘rinni egallaydi?
7. L.I.Bojovich, F.Kunkel, B.I.Dodonov kabi mualliflar shaxs yo‘nalishining qanday turlarini ajratib ko‘rsatishgan?
8. Smekal-Kucher usulida (B. Bassning indikativ so‘rovnomasi asosida ishlab chiqilgan) shaxs yo‘nalishining qanday turlari aniqlanadi?
9. Kasbga yo‘naltirish, kasbiy maslahat, optant, moyillik, qiziqish, qobiliyat tushunchalariga ta’rif bering.
10. Kasbga yo‘naltirishda psixologik diagnostikaning o‘rni qanday?
11. Kasbiy diagnostika usullarining qanday turlarini bilasiz?
12. Qiziqishlar xaritasi, Differensial diagnostik so‘rovnomalarning mualliflarni ko‘rsating va usullarni tavsiflang
13. Temperament tushunchasiga ta’rif bering.
14. Temperamentni tasniflashning qanday asoslarini ko‘rsatish mumkin?
15. Qanday usullar temperamentni aniqlash imkonini beradi?
16. Temperamentning 4 turining har biriga tavsif bering.
17. Aksentuatsiya tushunchasiga ta’rif bering.
18. A.E.Lichko va K.Leongardlar bo‘yicha aksentuatsiya turlarini aytib bering.
19. Qaysi metodlar xarakter aksentutsiyasini aniqlash imkonini beradi?
20. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining ko‘rinishlari.
21. Psixologiya fanidagi “ehtiyoj” tushunchasiga ta’rif bering.
22. Inson ehtiyojlari hayvonlar ehtiyojlaridan qanday farq qiladi?
23. Ehtiyojlarni qanday mezonlar asosida tasniflash mumkin?
24. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi modelining mohiyatini ochib bering.
25. Ehtiyojlar qadriyatlardan qanday farq qiladi?
26. “Motiv” va motivatsiya tushunchalariga ta’rif bering.
27. Motivlarning vazifalarini sanab bering va misollar keltiring.
28. G.Ollport bo‘yicha motivlarning funksional avtonomligi tamoyilining mohiyati nimada? Misollar keltiring.

29. “Motivni maqsadga ko‘chishi” motivlarini shakllantirish mexanizmining mohiyatini ochib bering.

30. Shaxsning muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyasizlikdan qochish motivatsiyasini shakllantirishga qanday omillar ta’sir qiladi?

31. Emotsional reaksiyalarning fiziologik mexanizmlari.

32. Shaxs emotsional sohasini o‘rganishning qisqa tavsifi.

33. Shaxs emotsional sohasini o‘rganishning amaliy tadqiqotlari.

34. “Iroda” tushunchasiga ta’rif bering. Turli olimlarning irodaning mohiyati haqidagi qarashlarini misol qilib keltiring.

35. Irodaning vazifalarini sanab bering va misollar keltiring.

36. Irodaviy harakat belgilarini sanab bering va misollar keltiring.

37. “Irodaviy boshqaruv” va “ixtiyoriy boshqaruv” tushunchalari qanday o‘zaro bog‘liq?

38. Irodaviy boshqaruv mexanizmlarining mohiyatini ochib bering va misollar keltiring.

39. Shaxs irodasining shakllanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

40. Irodasiz xulq-atvor nima?

41. Irodaning yo‘qligi nimada namoyon bo‘ladi? Javobingizni psixologik jihatdan asoslab bering.

42. Ixtiyoriy idrok va xotira buzilishlarini sanab o‘ting va ularning mohiyatini ochib bering.

43. Irodaviy intilishlar kuchining buzilishi qanday namoyon bo‘ladi?